


106595

AB

SAODAT RO'ZIYEVA

# RUS TILIDA GAPIRISHNI

## O'RGANAMIZ



предлоги


вопросы

тесты

дополнительный  
материал

811  
R-22

SAODAT RO'ZIYEVA



# Rus tilida gapirishni o'rganamiz

  
YANGI ASR AVLODI  
TOSHKENT  
2021

CHORTOQ TUMAN  
AXBOROT-KUTUBXONA  
MARKAZI  
Kel. № 206595

**UO‘K: 811.161.1(075.4)**

**KBK: 81.2 Pyc-5**

**R – 22**

**Ro‘ziyeva, Saodat**

Rus tilida gapirishni o‘rganamiz / Saodat Ro‘ziyeva. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2021. – 208 b.

Ushbu qo‘llanma mustaqil ravishda til o‘rganishni xohlovchi o‘quvchilar uchun mo‘ljallangan. Mazkur loyihaning afzal jihati – hatto rus tilini mutlaqo bilmaydigan boshlang‘ich sinf o‘quvchilari uchun ham oson va qulay dastur asosida tayyorlanganidir. Ya‘ni har bir mavzu o‘zbek tilida batafsil tushuntirib beriladi va bu darsni to‘liq o‘zlashtirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Qo‘llanmadan mustaqil foydalanib, so‘zlar, so‘z turkumlari, shaxs-zamon, rod, predloglar, suffiks va qo‘shimchalarni o‘rganib, ularni to‘g‘ri qo‘llab gap tuza olish darajasida bilim egallash mumkin. Bu esa o‘z navbatida, tilni mukammal darajasida o‘zlashtirish omili bo‘lib xizmat qiladi.

Har bir mavzudan keyin test savollari ham berilganki, bu, albatta, egalangan bilim va ko‘nikmalarni yanada mustahkamlashda qo‘l keladi. Dia-loglar esa rus tilida og‘zaki nutqni rivojlantirishda yordamchi bo‘ladi.

Bir so‘z bilan aytganda, mazkur qo‘llanmani bimalol kitob shaklidagi «beminnat o‘qituvchi» deb atash mumkin.

#### **Taqrizchilar:**

**I.A.RAIMQULOVA,**

Xalq ta‘limi vazirligi huzuridagi Samarqand viloyati Xalq ta‘limi xodimlarini qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish hududiy markazi katta o‘qituvchisi

**M.K.YAKUBJONOVA,**

Xalq ta‘limi vazirligi huzuridagi Samarqand viloyati Xalq ta‘limi xodimlarini qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish hududiy markazi o‘qituvchisi

**L.B.SOBIROVA,**

Samarqand viloyati Ishtixon tumanidagi 35-maktabning rus tili va adabiyoti fani o‘qituvchisi

*Mazkur uslubiy qo‘llanma Samarqand viloyati Xalq ta‘limi boshqarmasi metodik xizmat bo‘limi Metodik kengashining 2020-yil 16-dekabrda 68/1- son qarori bilan ommalashtirish uchun chop etishga tavsiya etilgan*

ISBN 978-9943-20-809-4

© Saodat Ro‘ziyeva, «Rus tilida gapirishni o‘rganamiz». «Yangi asr avlodi», 2021-yil.

## RUS TILIDA GAPIRISHNI O'RGANAMIZ

Ushbu kitob rus tilini «0» dan boshlab mustaqil o'rganmoqchi bo'lganlar uchun mo'ljallangan.

Barcha tillarda bo'lganidek, rus tilida ham faol so'zlar (nutqimizda tez-tez qo'llanadigan) va nafaol so'zlar (nutqimizda kam ishlatiladigan), atamalar bor. Biz ushbu qo'llanmada faol so'zlardan ko'proq foydalandik.

Mazkur kitobda o'rganuvchilar mavzularni to'liq o'zlashtirishlari uchun har bir mavzu bo'yicha jumla, sodda gaplar tuzishda kerakli so'zlar berib borilgan. Nuqtalar o'rniga so'zlar, harflar, qo'shimchalar qo'yish mashqlari berilgan. Bolalar mashqlarni mustaqil bajarib, ota-onalari yoki rus tili o'qituvchilaridan tekshirib berishlarini so'rashlari mumkin.

Bolalarning rus tilini yaxshi o'zlashtirishlari uchun har bir mavzu bo'yicha 10 va undan ortiq so'zlarni yodlashlari talab qilinadi. Bunda muhimi yodlagan so'zlarni unutilib qo'ymaslik uchun lug'atlarni, matnlarni qayta-qayta o'qib, takrorlab turish maqsadga muvofiqdir. Har bir mavzuning oxirida bilimingizni tekshirish uchun kichik-kichik testlar berilgan. Yana so'z turkumlari: ot (*имя существительное*), fe'l (*глагол*), sifat (*имя прилагательное*), olmosh (*местоимение*), son (*имя числительное*), ravish (*наречие*)lar haqida tushuncha berilgan. O'rganuvchilar so'zlarni gapda to'g'ri qo'llash, qo'shimchalarni kerakli o'rinlarda qo'yishlari uchun so'z turkumlari, kelishik, predloglar, rodlar, suffikslar haqida tushunchalarga ega bo'lib, gaplarni to'g'ri tuzishni o'rganadi.

Mazkur qo'llanma rus tilini o'rganishni xohlovchilar uchun muhim va qulay manba bo'lib xizmat qiladi.

## Знакомство – Tanishuv

- |                                 |   |
|---------------------------------|---|
| – Как тебя зовут?               | – Sening isming nima?                   |
| – Меня зовут Паризода.          | – Mening ismim Parizoda.                |
| – Как твоё имя?                 | – Sening isming nima?                   |
| – Моё имя Паризода.             | – Mening ismim Parizoda.                |
| – Как твоё фамилия?             | – Sening familiyang nima?               |
| – Моя фамилия<br>Тоштемирова.   | – Mening familiyam<br>Toshtemirova.     |
| – Сколько тебе лет?             | – Yoshing nechada?                      |
| – Мне 7 лет.                    | – Mening yoshim 7da.                    |
| – Где ты живёшь?                | – Sen qayerda yashaysan?                |
| – Я живу в городке<br>Митань.   | – Men Mitan shaharchasida<br>yashayman. |
| – В каком классе ты<br>учишься? | – Sen nechanchi sinfda<br>o‘qiysan?     |
| – Я учусь в первом классе.      | – Men birinchi sinfda o‘qiyman.         |

Ismni ikki xil tarzda so‘rash mumkin:

– Как твоё имя?

– Как тебя зовут?

Rus tilida kishilik olmoshlari ko‘p ishlatiladi. Shuning uchun kishilik olmoshlarini yodlab olish maqsadga muvofiqdir.

## Личные местоимения – Kishilik olmoshlari

я – men

мы – biz

ты – sen

вы – siz

он, она – u

они – ular

Endi kitobimizning boshida sodda gaplar tuzish uchun egalik olmoshlari kerak bo‘ladi:

Мой, моя, моё, мои – mening

Мой – муж. род – мой папа, мой друг

Мой брат, мой телефон, мой карандаш

|                   |   |
|-------------------|---|
| Моя – жен. род    | – моя мама, моя сестра,<br>моя семья, моя книга |
| Моё – сред. род   | – моё окно, моё зеркало                         |
| Мои – множ. число | – мои книги, мои окна, мои<br>карандаши         |

### Семья – Oila

|                    |                            |
|--------------------|----------------------------|
| дедушка            | buva, bobo                 |
| бабушка            | buvi, momo                 |
| папа, отец         | dada, ota                  |
| мама, мать         | aya, ona                   |
| брат               | aka (uka)                  |
| сестра             | opa (singil)               |
| сын                | o'g'il                     |
| дочь, дочка        | qiz                        |
| внук               | nabira (o'g'il bola)       |
| внучка             | nabira (qiz bola)          |
| близнецы           | egizaklar                  |
| двойня (двойняжки) | egizaklar                  |
| племянник          | jiyan (o'g'il bola)        |
| племянница         | jiyan (qiz bola)           |
| дядя               | tog'a, amaki               |
| тётя               | xola, amma                 |
| дети, ребята       | bolalar                    |
| ребёнок            | chaqaloq, farzand          |
| родители           | ota-ona                    |
| родственник        | qarindosh (o'g'il bola)    |
| родственница       | qarindosh (qiz bola)       |
| двоюродная сестра  | amakivachcha (qiz bola)    |
| двоюродный брат    | amakivachcha (o'g'il bola) |
| сноха              | yanga                      |
| невеста            | kelin                      |
| жених              | kuyov                      |
| муж                | er                         |

жена

тёща

тесть

свекровь

свёкор

у меня есть...

у тебя есть...

у нас есть...

у мамы есть...

у дяди есть...

у друга есть...

у брата есть...

к нам

к ним

ко мне

xotin

kuyovning qaynonasi

kuyovning qaynotasi

kelinning qaynonasi

kelinning qaynotasi

menda... bor

senda... bor

bizda... bor

onamda... bor

tog'amda (amakimda)... bor

do'stimda... bor

akamda... bor

biznikiga

ularnikiga

menikiga



## Глаголы

|                |                               |
|----------------|-------------------------------|
| идёт           | boryapti                      |
| живёт          | yashaydi                      |
| рад            | xursand                       |
| учится         | o'qiydi                       |
| помогает       | yordam beryapti               |
| играет         | o'ynayapti                    |
| сидит          | o'tiribdi                     |
| работает       | ishlayapti                    |
| прыгнул        | sakradi                       |
| подошёл        | yoniga keldi                  |
| читает         | o'qiyapti                     |
| люблю          | yaxshi ko'raman               |
| пришёл         | keldi (erkak jinsi)           |
| пришла         | keldi ( ayol jinsi)           |
| пришли         | kelishdi                      |
| приехал(а) (и) | keldi, kelishdi (transportda) |

### Yangi o'rgangan so'zlaringiz asosida shu gaplarga o'xshash sodda gaplar tuzing.

|                                   |                                       |
|-----------------------------------|---------------------------------------|
| Дедушка живёт в городе.           | Bobom shaharda yashaydi.              |
| Брат читает книгу.                | Akam kitob o'qiyapti.                 |
| Папа работает в школе.            | Dadam maktabda ishlaydi.              |
| Племянник учится в институте.     | Jiyanim institutda o'qiydi.           |
| Сестра учится в колледже.         | Opam kollejda o'qiydi.                |
| У дяди есть сын и дочь.           | Tog'amning o'g'li va qizi bor.        |
| У тёти есть двойняжки (близнецы). | Xolamning egizaklari bor.             |
| У снохи есть ребёнок.             | Yangamning farzandi bor.              |
| Двоюродный брат работает в банке. | Amakivachcham bankda ishlaydi.        |
| У невесты есть свекровь и свёкор. | Kelinning qaynotasi va qaynonasi bor. |

У жениха есть тесть  
и тёща.

Эта девочка моя родственница.  
Этот мальчик мой  
родственник.

Мои родители дома.

К нам пришёл родственник.

Я люблю бабушку.

Нашу невесту зовут

Дильноза

Дильноза учится в медицинс-  
ком институте. Она будущий  
стоматолог.

Афзуна младшая дочь Ироды.

Kuyovning qaynotasi va  
qaynonasi bor.

Bu qiz mening qarindoshim.

Bu o'g'il bola mening  
qarindoshim.

Mening ota-onam uyda.

Biznikiga qarindoshim keldi.

Men buvimni yaxshi ko'raman.

Bizning kelinimizning ismi

Dilnoza.

Dilnoza tibbiyot institutida  
o'qiydi. U bo'lajak stoma-  
tolog.

Afzuna Irodaning kichkina  
qizi.

### Диалог №1

– Это чья фотография?

– Это фотография нашей  
семьи.

– Это кто?

– Это мой папа.

– Как его зовут?

– Его зовут Алишер  
Абсаломов.

– Он военный, служит  
в таможне.

– А это твоя мама?

– Да, это моя мама. Её зовут  
Ирода, она работает врачом.  
Она лечит детей.

– А это твой брат?

– Да, это мой брат Акобир.  
Он ходит в детский сад.

А это мои сестра Азиза.

– Bu kimning rasmi?

– Bu oilamizning rasmi.

– Bu kim?

– Bu mening dadam.

– Uning ismi nima?

– Uning ismi Alisher  
Absalomov.

– U harbiy, bojxonada  
xizmat qiladi.

– Bu esa sening onangmi?

– Ha bu mening onam. Uning  
ismi Iroda, u shifokor bo'lib  
ishlaydi. U bolalarni davolaydi.

– Bu sening ukangmi?

– Ha, bu mening ukam Akobir.  
U bog'chaga boradi.

Bu esa mening singlim

- |                                      |   |
|--------------------------------------|---|
| Ей один год. А это сестрёнка Афзуна. | Aziza. U 1 yoshda. Bu esa singlim Afzuna.         |
| – Ты их любишь?                      | – Sen ulami yaxshi ko‘rasanmi?                    |
| – Да, я люблю брата и сестёр.        | – Ha, men ukamni va singillarimni yaxshi ko‘raman |

## Диалог №2

- |   |   |
|---|---|
| – Азиза, у тебя есть дедушка и бабушка?   | – Aziza, sening bobong va buving bormi?   |
| – Да, у меня есть дедушка и бабушка.  | – Ha, mening bobom va buvim bor.  |
| – Как зовут твоих дедушку и бабушку?  | – Bobong bilan buvingning ismlari nima?   |
| – Бабушку зовут Ибодат. Она врач. Сейчас она на пенсии. Она работала преподавателем в медицинском техникуме, и ещё работала врачом в скорой помощи. Дедушка тоже на пенсии. | – Buvimning ismi Ibodat. U shifokor. Hozir u nafaqada. U tibbiyot kollejida o‘qituvchi bo‘lib ishlagan, yana tez yordam bo‘limida shifokor bo‘lib ishlagan. Bobom ham nafaqada. |

### «Oila» mavzusi bo‘yicha savol-javoblarni o‘qing.

1. – Эльдор, как зовут твою маму? – Мою маму зовут Дильшода.  
– Eldor, oyning ismi nima? – Mening oyimning ismi Dilshoda.
2. – Эльнур, это твой дядя? – Да, это мой дядя.  
– Elnur, bu sening tog‘angmi? – Ha, bu mening tog‘am.
3. – Робия, чья это тётя? – Это тётя Ферузы.  
– Robiya, bu kimning xolasi? – Bu Feruzaning xolasi.
4. – У тебя есть племянница? – Да, у меня есть племянница.  
– Sening jiyaning bormi? – Ha, mening jiyanim bor.
5. – У тебя есть сестра? – Да, у меня есть сестра  
– Sening orang bormi? – Ha, mening oram bor.

6. – Это чья свекровь? – Это свекровь тёти.

– Bu kimning qaynonasi? – Bu xolamning qaynonasi.

7. – Как зовут твою сестру? – Мою сестру зовут Мехрибон.

– Sening singlingning ismi nima? – Mening singlimning ismi Mehribon.

8. – Как зовут твоего брата? – Моего брата зовут Аллаёр.

– Sening ukangning ismi nima? – Mening ukamning ismi Olloyor.

9. – Кем работает твой папа? – Мой папа работает инженером.

– Sening dadang kim bo‘lib ishlaydi? – Mening dadam muhandis bo‘lib ishlaydi.

10. – Эльёр, как зовут твоего папу? – Моего папу зовут Зафар.

– El‘yor, sening dadangning ismi nima? – Mening dadamning ismi Zafar.

### **Ответьте на вопросы – Savollarga javob bering.**

1. Как тебя зовут?

2. Как зовут твоего папу?

3. Как зовут твою маму?

4. У тебя есть сестра?

5. Как зовут твою сестру?

6. Чей это брат?

7. Как зовут твоего брата?

8. Как зовут твоего дядю?

9. Чей это папа?

10. Чья это подруга?

### **Matnni o‘qib tarjima qiling, savollarga javob bering.**

#### **Семья**

Меня зовут Шохимардон. Моя фамилия Абдумаликов. Это наша семья. Наша семья большая и дружная. Мы живём в большом и уютном (shinam) доме. Мы все

работаем и учимся. Дедушка и бабушка пенсионеры. Мой папа работает на заводе. Моя мама домохозяйка. Мой старший брат Эльёр студент. Он живёт и учится в Ташкенте. Моя старшая сестра Муниса тоже студентка. Она учится в колледже на первом курсе. Я учусь в пятом классе. Наша семья дружная. Я люблю нашу семью.

### Вопросы:

1. Где ты живёшь? *Sen qayerda yashaysan?*
2. Где работает твой папа? *Sening dadang qayerda ishlaydi?*
3. Кем работает твоя мама? *Sening onang kim bo'lib ishlaydi?*
4. У тебя есть брат и сестра? *Sening akang va opang bormi?*
5. Где учится твой брат? *Sening akang qayerda o'qiydi?*
6. Где учится твоя сестра? *Sening opang qayerda o'qiydi?*
7. Что делает младший брат? *Kichkina ukang nima qiladi?*
8. В каком классе ты учишься? *Sen nechanchi sinfda o'qiysan?*

### Lug'at yordamida tarjima qiling.

*Mening ismim Shoximardon, familiyam Abdumalikov. Men 5-sinfda o'qiyman. Bizning oilamiz katta emas. Oilamizda 5 kishi bor – dadam, ayam, opam, akam va men. Dadamning ismi Sobir. Dadam zavodda ishlaydi. Ayamning ismi Nargiza. Ayam uy bekasi. Dilshoda opam 10-sinfda o'qiydi, akam Yoqub 6-sinfda o'qiydi. Bizning oilamiz ahil. Men oilamizni yaxshi ko'raman.*

### Диалог

- |                                    |                                       |
|------------------------------------|---------------------------------------|
| – Как тебя зовут?                  | – Sening isming nima?                 |
| – Меня зовут Дилдора.              | – Mening ismim Dildora.               |
| – А сколько человек в вашей семье? | – Sizning oilangizda necha kishi bor? |

|  |  |
|--|--|
| – У нас семье 6 человек:<br>папа, мама, два брата,<br>сестра и я.      | – Bizning oilamizda 6 kishi<br>bor: dadam, oyim, akam,<br>ukam, opam va men. |
| Папу зовут Равшан,<br>а маму зовут Шахноза.                            | Dadamning ismi Ravshan,<br>oyimning ismi Shaxnoza.                           |
| Сестру зовут Гулшода.<br>Она замужем.                                  | Opamning ismi Gulshoda.<br>U turmushga chiqqan. Uning                        |
| У неё есть один сын и<br>одна дочь.                                    | bitta o'g'li va bitta qizi bor.  |
| Сына зовут Афруз, дочь<br>зовут Фарида.                                | O'g'lining ismi Afruz,<br>qizining ismi Farida.                              |
| Старшего брата зовут<br>Рахмиддин, а младшего<br>брата зовут Аслиддин. | Akamning ismi Raxmiddin,<br>ukamning ismi esa Asliddin.                      |

**Test savollarini tushunish uchun 160-betdagi  
lug'atga qarang.**

**Тест**

**1. На какой вопрос дан ответ: «У меня нет брата».**

- |                            |                         |
|----------------------------|-------------------------|
| A) У тебя есть брат?       | C) Куда идёт твой брат? |
| B) Где работает твой папа? | D) Чей это брат?        |

**2. На какой вопрос дан ответ: «Нет, это мой друг».**

- |                   |                     |
|-------------------|---------------------|
| A) Это твой друг? | C) Это твоя сестра? |
| B) Это твой брат? | D) Чей это друг?    |

**3. В каком ряду даны существительные, обозначающие членов семьи?**

- A) доктор, учитель, артист
- B) мама, папа, брат
- C) сосед, друг, дядя
- D) знакомый, приятель, подруга

**4. Вставьте подходящее по смыслу слово: «Это моя старшая.....»**

- |           |         |
|-----------|---------|
| A) брат   | C) мама |
| B) сестра | D) тётя |

5. Вставьте подходящее по смыслу слово: «Мой. .... учится в лицее».

- А) одноклассник    С) друг  
В) подруга        Д) отличник

6. Вставьте подходящее по смыслу слово: «У тёти есть два.....»

- А) дочери            С) сына  
В) внуки            Д) сестры

7. Найдите правильный перевод слова: «родственнику».

- А) qarindosh        С) amakivachcha  
В) ota-ona

### Человек – Odam

|                     |                               |
|---------------------|-------------------------------|
| люди                | odamlar                       |
| друг                | do'st                         |
| подруга             | dugona                        |
| товарищ             | o'rtoq                        |
| мальчик             | o'g'il bola                   |
| девочка             | qiz bola, voyaga yetmagan qiz |
| мужчина             | erkak                         |
| женщина             | ayol                          |
| друзья              | do'stlar                      |
| знакомый            | tanish                        |
| сверстник           | tengdosh                      |
| незнакомый          | notanish                      |
| приятель            | oshna-og'ayni                 |
| одноклассни(к)-(ца) | sinfdosh                      |
| хозяин              | xo'jayin, egasi               |
| хозяйка             | beka                          |
| сосед (ка)          | qo'shni                       |
| старик (старичок)   | chol, past bo'yli chol        |
| старуха (старушка)  | kampir, kampircha             |
| парень (паренёк)    | yigit, yigitcha               |
| девушка             | voyaga yetgan qiz             |

|                       |                          |
|-----------------------|--------------------------|
| гость                 | mehmon                   |
| коллега               | kasbdosh                 |
| земляк                | yurtdosh                 |
| местный               | shu yerlik               |
| старый (ая)           | keksa yoshli qari        |
| молодой (ая)          | yosh                     |
| старший (брат)        | katta (aka)              |
| младший (ая) (сестра) | kichik (opa yoki singil) |
| к нам                 | biznikiga                |
| со мной               | men bilan                |
| у нас есть            | bizda... bor             |
| у него (у неё) есть   | unda... bor              |
| в гости               | mehmonga                 |
| к тётё                | xolamnikiga              |
| к другу               | do'stimnikiga            |
| с ним (с ней)         | u bilan                  |
| с ними                | ular bilan               |

### Глаголы

|                  |   |
|------------------|---|
| идёт             | boryapti                                |
| приш(ёл) (ла)    | keldi                                   |
| живёт            | yashaydi                                |
| увидел           | ko'rdi                                  |
| работает         | ishlaydi                                |
| встретил         | uchratdi (m)                            |
| сидел            | o'tirar edi                             |
| приехал          | keldi (transportda)                     |
| принёс, принесла | olib keldi                              |
| привёл, привела. | yetaklab keldi                          |
| ходил            | borgan edi (piyoda); har doim borar edi |

## Lugʻat yordamida oʻzbek tiliga tarjima qiling

### Моя подруга

У меня есть подруга. Её зовут Зульфия. Моя подруга живет в селе Янгиобод. Она домохозяйка. У неё есть один сын и одна дочь. Дочку зовут Хаётбону, сына зовут Асрор. Её муж Шербек – военный. Сейчас он на пенсии. К ним часто приходят гости. У них очень хорошие соседи. Они часто собираются с приятелями и ездят отдыхать в горы.

### Моя сестра

У меня есть сестра. Её зовут Севара. Она живёт в Самарканде. Севара работает учительницей в школе. Она учительница английского языка. У неё есть муж. Его зовут Джамол. Он работает на заводе инженером. У Севары есть два сына. Старшего сына зовут Лазизбек, младшего сына зовут Диёрбек. Это очень дружная семья.

### Rus tiliga tarjima qiling.

1. *Bu kishi mening qoʻshnim.*
2. *Odamlar ishga borishadi.*
3. *Mening doʻstim kitob oʻqiyapti.*
4. *Bu qiz opamning dugonasi.*
5. *Biz parkda dadamning doʻstini uchratdik.*
6. *Bu erkak dadamning oshnasi.*
7. *Biz uyning egasi bilan gaplashdik.*
8. *Koʻchada notanish odam turar edi.*
9. *Bu yigit akamning doʻsti.*
10. *Mening sinfdoshim Дуёрбек ertak oʻqishni yaxshi koʻradi.*
11. *Stulda qari odam oʻtirar edi.*
12. *Mening buvim qari.*

Rus tilida 3 ta rod bor. Rodlar qoshimchalariga qarab ajratiladi. Otlarning qo'shimchalari:

**Женский род** – **-а, -я** – сестра, тётя, книга, школа, земля (yer).

**Ко'plikda** – **-ы, -и** – сестры, тётти, книги, школы, земли.

**Мужской род** – (undosh harflar bilan tugaydigan so'zlar): брат, конь, класс, дом, стол, телефон,

**Ко'plikda** – **-ы, -и, -а, -я** – братья, кони, классы, дома, столы, телефоны, стулья.

**Средний род** – **-о, -е** – окно, письмо, небо, солнце, море, поле (dala), зеркало (ko'zgu), здание (bino).

**Ко'plikda** – **а, -я** – окна, письма, моря, поля, зеркала, здания.

**Мужской роддаги so'zlar** – **мой, твой, наш, ваш, его, их** olmoshlari bilan ishlatiladi: мой костюм, твой галстук, наш дом, ваш телевизор, его брат, их класс.

**Женский роддаги so'zlar** – **моя, твоя, наша, ваша, её, их** olmoshlari bilan ishlatiladi: моя сумка, твоя сестра, наша школа, ваша машина, её телефон, их бабушка.

**Средний роддаги so'zlar** – **моё, твоё, наше, ваше, его, их** olmoshlari bilan ishlatiladi: моё письмо, твоё окно, ваше зеркало, наше здание, её платье, их деревья.

**Ко'plikdagi otlar** – **мои, твои, наши, ваши, их** olmoshlari bilan ishlatiladi: мои книги, твои тетради, наши друзья, ваши сумки, их окна.

**Его** – erkak jinsiga ta'lluqli narsaga, kishiga nisbatan aytiladi: Это мой брат. Это его велосипед.

**Её** – ayol jinsiga taalluqli narsa, kishiga nisbatan aytiladi: *Это моя сестра. Это её телефон.*

|  |   |
|--|---|
| Это Акобир.<br>А это его сестра Азиза.     | Bu Akobir.<br>Bu esa uning singlisi Aziza.      |
| Это Паризода.<br>А это её сестра Мехрибон. | Bu Parizoda.<br>Bu esa uning singlisi Mehribon. |

|  |  |
|--|--|
| Это Азиза.<br>А это её брат Ақобир.                    | Bu Aziza.<br>Bu esa uning akasi Akobir.                |
| Это Зарина.<br>А это её племянник<br>Диёрбек.          | Bu Zarina.<br>Bu esa uning jiyani Diyorbek.            |
| Это Озодбек.<br>А это его двоюродный брат<br>Жонибек.  | Bu Ozodbek.<br>Bu esa uning tog'avachchasi<br>Jonibek. |
| Это Мехрибон.<br>А это её двоюродная сестра<br>Иймона. | Bu Mehribon.<br>Bu esa uning amakivachchasi<br>Iymona. |

*Это Ақобир, а это Азиза. Азиза его сестра.*

*Это Аброр. Он мой друг. Это его книга.*

*Это Азиза. Она моя сестра. Это её телефон.*

### Тест

#### 1. Найдите слова среднего рода.

- А) море, окно, дерево  
 В) дерево, школа, дверь  
 С) город, музей, стадион

#### 2. Укажите ряд, где даны только слова женского рода.

- А) учитель, ученик, учительница  
 В) собака, портфель, кошка  
 С) доска, ручка, шапка.

#### 3. Найдите правильный ответ на вопрос: «Это твой дедушка?»

- А) да, моя     С) да, мой  
 В) да, мои     Д) да, моё

#### 4. Вставьте слово мой в нужной форме. Это... сестра

Паризода.

- А) мой     С) моё  
 В) мои     Д) моя.

#### 5. Вставьте пропущенное слово в нужной форме: ...

имя Бекзод.



А) мой

Б) моя

С) моё

Д) мои

6. Употребите слова **ручка, портфель, платье** с местоимением **твой** в нужной форме.

А) твой, твоя, твоё

Б) твоя, твой, твоё

С) твоя, твой, твоя

Д) твоё, твоя, твой

### Предлоги – Ko‘makchi

|             |                         |
|-------------|-------------------------|
| а           | esa                     |
| и           | va                      |
| к           | yoniga                  |
| до          | -gacha                  |
| от          | -dan                    |
| из          | -dan, ichidan           |
| с           | bilan, ustidan          |
| над         | ustidan                 |
| под         | tagida                  |
| в           | ichida, ichiga          |
| на          | ustida, ustiga          |
| для         | uchun                   |
| о           | haqida                  |
| за          | ortiga, ortida, ortidan |
| из-за       | orqasida                |
| из-под      | tagidan                 |
| по          | usti bo‘ylab            |
| около       | yonida                  |
| возле       | yonida                  |
| между       | orasida                 |
| недалеко от | yaqinida                |

Акобир и Азиза брат и сестра.

Aziza bilan Akobir aka va singil.

На парте лежат книги и тетради.

Partaning ustida kitoblar va daftarlar yotibdi.

|   |  |
|---|--|
| Слон большой, а заяц маленький.         | Fil katta, quyon esa kichkina.             |
| К нам приехали дедушка и бабушка.       | Biznikiga bobom bilan buvim kelishdi.      |
| Расстояние от дерева до дома 10 метров. | Daraxtdan uygacha bo'lgan masofa 10 metr.  |
| Мой брат приехал из Андижана.           | Mening akam Andijondan keldi.              |
| Папа с братом пошли ловить рыбу.        | Dadam akam bilan baliq tutishga borishdi.  |
| Самолёт летит над городом.              | Samolyot shahar ustidan uchib o'tmoqda.    |
| Собака лежит под деревом.               | It daraxtning tagida yotibdi.              |
| Ученики сидят в классе.                 | O'quvchilar sinfda o'tirishibdi.           |
| Брат купил платок для мамы.             | Akam onam uchun ro'mol sotib oldi.         |
| Эльёр прочитал книгу о животных.        | Elyor hayvonlar haqida kitob o'qidi.       |
| Акобир спрятался за деревом.            | Akobir daraxt ortiga yashirindi.           |
| Машина выехала из-за дома.              | Mashina uyning orqasidan chiqdi.           |
| Кошка выбежала из-под дивана.           | Mushuk divanning tagidan yugurib chiqdi.   |
| Кони бежали по полю.                    | Otlar dala bo'ylab yugurishar edi.         |
| Ученик стоит возле доски.               | O'quvchi doskaning yonida turibdi.         |
| Около дома стоит машина.                | Uyning yonida mashina turibdi.             |
| Наш дом находится недалеко от школы.    | Bizning uyimiz maktab yaqinida joylashgan. |

## Вопросы – Savollar

|                                 |               |
|---------------------------------|---------------|
| кто?                            | kim?          |
| что?                            | nima?         |
| кого?                           | kimni?        |
| чего?                           | nimani?       |
| кому?                           | kimga?        |
| чему?                           | nimaga?       |
| кем?                            | kim bilan?    |
| чем?                            | nima bilan?   |
| с кем?                          | kim bilan?    |
| с чем?                          | nima bilan?   |
| о ком?                          | kim haqida?   |
| о чём?                          | nima haqida?  |
| когда?                          | qachon?       |
| как?                            | qanday qilib? |
| где?                            | qayerda?      |
| куда?                           | qayerga?      |
| откуда?                         | qayerdan?     |
| зачем?                          | nimaga?       |
| почему?                         | nima uchun?   |
| какой?, какая?, какое?, какие?, | qanaqa?       |
| чей?, чья?, чьё?, чьи?          | kimning?      |

Rus tilida so‘roq gaplar so‘roq so‘zlar va soro‘q ohang bilan aytiladi. Ushbu tilda so‘roq gaplar so‘roq so‘zlar bilan boshlanadi.

1. **Что** ты читаешь? – Sen nima o‘qiyapsan?
2. **Куда** ты идёшь? – Sen qayerga boryapsan?
3. **Как** тебя зовут? – Sening isming nima?
4. **Где** ты живёшь? – Sen qayerda yashaysan?

Bir xil so‘roq gaplar so‘roq so‘z isiz aytiladi. Bu so‘roq gaplar darak gapga o‘xshaydi. Mazkur so‘roq gaplar so‘roq ohangida aytiladi va gapning oxirida so‘roq belgisi turadi. Aytuvchi uchun qaysi so‘z muhim bo‘lsa shu so‘zga urg‘u beriladi.

**Ты сегодня пойдёшь в парк?** – Sen bugun parkka borasanmi?

Parkka borish vaqti muhim bo'lsa *сегодня* soziga urg'u berib aytiladi.

Parkka borish yoki bormasligi muhim bo'lsa *пойдёшь* so'ziga urg'u beriladi.

Parkka yoki boshqa joyga borayotganligi muhim bo'lsa *парк* so'ziga urg'u beriladi.

1. Ты **сегодня** пойдёшь в парк?

2. Ты сегодня **пойдёшь** в парк?

3. Ты сегодня пойдёшь **в парк**?

### Bir-biringizga savol bering va savollarga javob bering.

Savollar bir xil tarjima qilinmaydi. Masalan, **кого?** so'rog'i **kimni?**, **kim?** deb tarjima qilinishi mumkin. **Чего?** so'rog'ini – **nimani?**, **nima?** deb tarjima qilsa bo'ladi. **Что?** so'rog'ini **nima?** yoki **nimani?** deb tarjima qilsa bo'ladi.

|                              |  |   |
|------------------------------|--|---|
| Кого?<br>Kim?<br>Kimni?      | Кого нет дома?<br>Дома нет брата и сестры.<br><br>Кого ты ждёшь?<br>Я жду брата и сестру.  | Uyda kim yo'q?<br>Uyda akam bilan opam yo'q<br><br>Sen kimni kutyapsan?<br>Men akam bilan opamni kutyapman.   |
| Чего?<br>Nima?<br>Nimani?    | Чего у тебя нет?<br>У меня нет шарфа и куртки.<br>Чего ты ждёшь?<br>Я жду понимания.   | Senda nima yo'q?<br>Menda sharf bilan kurtka yo'q.<br>Sen nimani kutyapsan?<br>Men tushunishingizni kutyapman.  |
| Что?<br>N i m a ?<br>Nimani? | Что ты читаешь?<br>Я читаю сказку.<br>Что ты видишь?<br>Я вижу дом и дерево.<br>Что лежит на парте?<br>На парте лежат альбом и краски. | Sen nima o'qiyapsan?<br>Men ertak o'qiyapman.<br>Sen nimani ko'ryapsan?<br>Men uy bilan daraxtni ko'ryapman.<br><br>Partaning ustida nimalar yotibdi?<br>Partaning ustida albom bilan buyoqlar yotibdi. |

- |  |  |
|--|--|
| 1. Кто прочитал книгу?<br>Kim kitob o'qidi?                            | Я прочитал книгу.<br>Men kitob o'qidim.  |
| 2. Что лежит на парте?   | На парте лежат книги<br>и тетради.   |
| Partaning ustida nima<br>yotibdi?                                      | Partaning ustida kitoblar va<br>daftarlar yotibdi  |
| 3. Что ты видишь?<br>Sen nimani ko'ryapsan?                            | Я вижу хлопковое поле.<br>Men paxta dalasini ko'ryapman.   |
| 4. Кого нет в классе?<br><br>Sinfda kim yo'q?                          | В классе нет Ахмедова<br>Бахрома (Ахмедовой Лолы).<br>Sinfda Ahmedov Bahrom<br>(Ahmedova Lola) yo'q. |
| 5. Кого ты видишь?<br>Sen kimni ko'ryapsan?                            | Я вижу друга (подругу).<br>Men do'stimni (dugonamni)<br>ko'ryapman.                                  |
| 6. Чего нет у Алишера?<br>Alisherda nima yo'q?                         | У Алишера нет альбома.<br>Alisherda albom yo'q.  |
| 7. Кому ты дал книгу?<br>Sen kitobni kimga berding?                    | Я дал книгу другу( подруге).<br>Men kitobni do'stimga<br>(dugonamga) berdim.                         |
| 8. К кому подошёл учитель?<br>O'qituvchi kimning oldiga<br>keldi?      | Учитель подошёл к ученику.<br>O'qituvchi o'quvchining<br>oldiga keldi.                               |
| 9. Чему ты рад?<br>Sen nimaga xursandsan?                              | Я рад каникулам.<br>Men ta'til bo'lgani uchun<br>xursandman.   |
| 10. К чему подошёл<br>Озодбек?<br>Ozodbek nimaning oldiga<br>bordı?    | Озодбек подошёл к шкафу.<br>Ozodbek shkafning oldiga<br>bordı.                                       |
| 11. Кем работает твоя<br>мама?<br>Sening onang kim bo'lib<br>ishlaydi? | Моя мама работает<br>учительницей.<br>Mening onam o'qituvchi<br>bo'lib ishlaydi.                     |



## Тест

1. Правильно поставьте вопрос: «...это комната?» –  
Моя.

А) чья      С) чьё

В) что      Д) кто

2. Правильно поставьте вопрос: «... это? – Это мои  
друзья».

А) что      С) чей

В) кто      Д) что

3. На какой вопрос отвечает слово «с подругой?»

А) кто?      С) о чём?

В) с чем?      Д) с кем?

4. Найдите ответ на вопрос: «О ком думает папа?»

А) обо мне      С) меня

В) со мной      Д) мне

5. В каком ряду дан правильный ответ на вопрос:  
«Чем вы пишете в тетради?»

А) В тетради мы пишем ручка.

В) В тетради пишут ручкой.

С) В тетради мы пишем ручкой.

## Цвета – Ranglar

|            |             |
|------------|-------------|
| белый      | oq          |
| чёрный     | qora        |
| красный    | qizil       |
| жёлтый     | sariq       |
| синий      | ko'k        |
| зелёный    | yashil      |
| розовый    | pushti rang |
| алый       | qirmizi     |
| бардовый   | jigarrang   |
| салатовый  | och yashil  |
| голубой    | havorang    |
| коричневый | malla       |
| серый      | kulrang     |

|              |                         |
|--------------|-------------------------|
| золотой цвет | oltin rang, tilla rang  |
| сиреневый    | och binafsha rang       |
| фиолетовый   | binafsha rang           |
| оранжевый    | to‘q sariq (sabzi rang) |
| тёмный       | qoramtir                |
| молочный     | qaymoq rang             |

### Lug‘at yordamida o‘zbek tiliga tarjima qiling.

У Мунисы оранжевая куртка, белый шарф, белая шапка, коричневые сапожки.

У Мадины белая куртка, шарф и шапка молочного цвета, синяя кофта и чёрная юбка, на ногах белые кроссовки.

У Сухроба белая рубашка, тёмно-синие брюки, голубой галстук и молочная лёгкая куртка. На голове белая кепка. На ногах белые кроссовки.

### Do‘stlaringizning kiyimlari ranglari haqida gapirib bering.

У Шерзода белая рубашка (брюки, свитер, пальто, шапка, шарф, ботинки). У Азизы голубая кофта (юбка, костюм, сапожки, пальто, шарф, шапка, сумка).

### So‘z birikmalari tuzing.

Чёрный костюм, красная куртка, синий шарф.

### Время – Vaqt

|              |  |
|--------------|--|
| сегодня      | bugun                                  |
| завтра       | ertaga                                 |
| после завтра | ertadan keyin <i>indinga</i>           |
| вчера        | kecha                                  |
| позавчера    | kechadan oldingi kun <i>o‘ral kuni</i> |
| утром        | ertalab                                |
| день         | kun                                    |
| днём         | kunduzi                                |

|               |                        |
|---------------|------------------------|
| вечером       | kechqurun              |
| ночь          | tun                    |
| ночью         | kechasi; tunda; oqshom |
| в обед        | tushda                 |
| до обеда      | tushgacha              |
| после обеда   | tushdan so'ng          |
| сейчас        | hozir                  |
| потом         | keyin                  |
| рано          | erta                   |
| поздно        | kech                   |
| с утра        | ertalabdan             |
| до вечера     | kechgacha              |
| к вечеру      | kechga borib           |
| раньше        | ilgari; oldin; avval   |
| теперь        | endi                   |
| век           | asr                    |
| год           | yil                    |
| месяц         | oy                     |
| неделя        | hafta                  |
| каждый год    | har yili               |
| каждую неделю | har hafta              |
| каждый день   | har kuni               |
| каждый час    | har soatda             |
| каждую минуту | har daqiqada           |
| однажды       | bir kuni               |
| всегда        | har doim               |
| всё время     | hamma vaqt, har doyim  |
| иногда        | har zamonda            |
| никогда       | hech qachon            |
| давно         | ko'p vaqt oldin        |
| недавно       | yaqinda (o'tgan zamon) |
| скоро         | yaqinda (kelasi zamon) |
| долго         | uzoq vaqt              |
| во время      | paytida, vaqtida       |
| вовремя       | o'z vaqtida            |

|                     |                           |
|---------------------|---------------------------|
| год назад           | bir yil oldin             |
| 2 года назад        | ikki yil oldin            |
| в этом году         | shu yili                  |
| в прошлом году      | o'tgan yili               |
| на следующий год    | keyingi yil               |
| на следующей неделе | keyingi haftada           |
| целый год           | yil bo'yi                 |
| целый месяц         | 1 oy davomida             |
| целую неделю        | 1 hafta davomida          |
| целый день          | kun bo'yi                 |
| весь день           | kuni bilan                |
| всю неделю          | hafta davomida            |
| полгода             | yarim yil                 |
| полдня              | yarim kun                 |
| в полдень           | kunning yarmida           |
| полчаса             | yarim soat                |
| через полчаса       | yarim soatdan keyin       |
| через день          | kun ora, 1 kundan keyin   |
| каждые полчаса      | har yarim soatda          |
| полминуты           | yarim daqiqada            |
| полтора часа        | bir yarim soat            |
| всю жизнь           | butun umr, umr bo'yi      |
| всё время           | hamma vaqt                |
| рассвет             | tong                      |
| на рассвете         | tongda                    |
| на закате дня       | shomda; kunning botishida |
| мне некогда         | mening vaqtim yo'q        |
| у меня нет времени  | mening vaqtim yo'q        |

### Глаголы

|         |                       |
|---------|-----------------------|
| жил     | yashagan              |
| работал | ishladi; ishlagan edi |
| купил   | sotib oldi            |
| пойду   | boraman               |

|             |                              |
|-------------|------------------------------|
| поеду       | boraman (transportda)        |
| поехал      | bordi (transportda)          |
| приехал     | keldi (transportda)          |
| поедем      | boramiz (transportda)        |
| поедете     | borasiz (transportda)        |
| помогал     | yordam berdi                 |
| увидел      | ko'rdi, ko'rib qoldi         |
| нашёл       | topdi                        |
| потерял     | yo'qotdi                     |
| встал       | turdi                        |
| ходил       | borgan edi                   |
| хожу        | boraman (har doyim), yuraman |
| буду играть | o'ynayman                    |
| буду делать | qilaman                      |
| отдыхать    | dam olmoq                    |
| гулял       | sayr qildi                   |
| сидел       | o'tirgan edi                 |
| занимался   | shug'ullandi                 |
| продолжали  | davom ettirdik               |
| купил       | sotib oldi                   |
| вернулись   | qaytib keldik                |
| смотрел     | tomosha qildi                |
| смотрели    | tomosha qilishdi             |

### **Lug'at yordamida tarjima qiling.**

Сегодня утром мы с братом ходили в зоопарк.

На рассвете мы с папой пойдём ловить рыбу.

Вчера вечером к нам пришли бабушка Усар и бабушка Халима. Они принесли печенье и конфеты. Сегодня после обеда мы с друзьями пойдём на стадион играть в футбол. Вчера папа пришёл с работы рано, а сегодня пришёл поздно. Во время урока ученики сидели тихо. Сегодня я пришёл в школу вовремя. Недавно мы с одноклассниками ходили на экскурсию в музей. Скоро мы поедем в горы. В этом году Зарина поступила учиться в институт. В

прошлом году Фаррух окончил институт. Через 3 года Дильноза окончит институт. На следующий год мы всей семьёй поедem в горы Чимган. Иногда после уроков мы с ребятами играем в волейбол. Целый день дедушка Усар работал на огороде. На следующей неделе мы поедem в Ташкент. Целый год Фаррух занимался спортом. Всю неделю мой друг сидел дома и читал книгу. Раньше мы жили в городе. Каждый день я хожу в кружок русского языка. После обеда я буду делать уроки.

### **Вопросы:**

1. *Что ты делал вчера?*
2. *Когда пришли дедушка и бабушка?*
3. *Когда папа пришёл с работы?*
4. *Что делали ученики во время урока?*
5. *Где вы отдыхали с сестрой в прошлом году?*
6. *Куда вы поедете с семьёй на следующий год?*
7. *Что делал твой папа целый день?*
8. *Куда вы поедете на следующей неделе?*
9. *Кто занимался спортом целый год?*
10. *Что делал твой друг всю неделю?*
11. *Где вы жили раньше?*

### **Lug'at yordamida tarjima qiling.**

*Yaqinda Olloyor Yaponiyaga o'qishga boradi.*

*Kechqurun bobom bilan buvim televizor tomosha qilishdi.*

*Dadam gazeta o'qidi. Ayam jurnal o'qidi.*

*Ertaga kechqurun biznikiga xolam bilan jiyanim kelishadi.*

*Bugun ertalab men onamga yordam berdim.*

*Kecha tushdan keyin biz parkka bordik.*

*Kechadan oldingi kuni kunduzi biz tog'amlarnikiga meh-monga bordik.*

*Mening kitob o'qishga vaqtim yo'q.*

*Ertadan keyin biz ekskursiyaga boramiz.*

*Hozir men kitob o'qiyapman, keyin stadiona boraman.*

*Har yili yozda men lagerda dam olaman.  
Keyingi hafta dadam Toshkentga boradi.  
Yaqinda mening akam Andijondan keldi.  
Keyingi oyda biz Andijonga boramiz.  
Kecha kuni bilan Nodir kitob o'qidi.  
Kunduz men futbol o'ynayman, kechqurun esa dars qilaman.  
Yarim soatdan keyin biz parkka boramiz.  
Bugun Amir bobom ertalabdan kechgacha tomorqada ishladi.  
Ilhom bobom bolalari Nargiza va Nazarjonni yaxshi ko'radi.*

### **Matnni o'qing, lug'at yordamida tarjima qiling.**

#### **Поход**

Сегодня мы встали рано. После завтрака мы взяли рюкзаки и фотоаппарат и поехали на вокзал. Мама купила в кассе билеты. Мы сели в первый вагон электрички. Через час мы сошли на маленькой станции. Погода была жаркая. Мы пошли в сторону леса. Мы шли по лугу. Затем мы подошли к речке. На берегу мы разожгли костёр. Мы пообедали. Затем мы купались в речке. После обеда мы продолжили свой путь. Мы дошли до леса. Мама села в тени отдохнуть. Мы играли в волейбол. Потом пошли собирать грибы. Вечером мы вернулись домой.

#### **Тест**

1. Найдите правильный перевод – «keyingi haftada».  
А) целую неделю В) на следующей неделе С) всю неделю
2. Вместо точек вставьте подходящее по смыслу слово.  
«Сегодня я пришёл в школу....»  
А) вовремя В) недавно С) скоро
3. Вместо точек вставьте подходящее по смыслу слово:  
«..... мы поедем в горы».  
А) долго В) скоро С) недавно
4. Вставьте подходящее по смыслу слово «..... мы ездили в горы».  
А) долго В) скоро С) недавно